


# YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ 2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN TELEFON

Alexander Graham Bell



TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ



AVGUST №55

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
7-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-7**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-7**

**ТОШКЕНТ-2023**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 55-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 19 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>1. Kamolova Mashhura</b> PAXTACHI TUMANI OYKONIMLARI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR.....	7
<b>2. Mastona Yuldasheva</b> AVTOMOBILSOZLIKGA OID TERMINLAR RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARI .....	9
<b>3. Мейлинорова Феруза Бахтиер қизи</b> THE EFFECT OF INDUCTIVE VS. DEDUCTIVE INSTRUCTIONAL APPROACH IN GRAMMAR LEARNING OF ESL LEARNERS .....	11
<b>4. Pirnazarova Dilbarxon Abdullajon qizi</b> KOGNITIV METAFORANING SHE'RIY MATNDA IFODALANISHI .....	13
<b>5. Saodatkhon Urinboeva</b> ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MULOQOT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	15



## ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### ПАХТАЧИ ТУМАНИ ОΥΚΟΝΙΜΛΑΡΙ ΧΥΣΥΣΙΔΑ ΒΑ΄ΖΙ ΜΥΛΟΗΖΑΛΑΡ

**Kamolova Mashhura,**  
SamDU 2-kurs talabasi.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Samarqand viloyati Paxtachi tumani oykonimlarining nomlanishi to‘g‘risida ayrim mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar.** *Atoqli ot, toponim, topoformant, etnonim, oykonim, etnotoponim.*

Tilimizda turdosh otlar bilan bir qatorda, atoqli otlar ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Biz ularga kishi ismlarida (antroponim), joy nomlari (toponim), urug‘ yoki qabila nomlari (etnonim) da duch kelamiz. O‘zbek tilida hech bir nom bekorga qo‘yilmaydi. Ular ma‘lum bir maqsad yoki sabab bilan atoqli ot sifatida tanlanadi. Ularni o‘rganish geograf, tarixchi, etnograf, hatto tilshunoslarning o‘rganish obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

Shu o‘rinda Samarqand viloyatida 2000 ga yaqin shahar, qishloq borligini eslab o‘tish joiz [3, 100]. Ularning aksariyati etnonimlar bilan bog‘liq. Viloyatning Paxtachi tumanidagi oykonim (aholi turar joylari nomi) larning nomlanishi xususida fikr yuritamiz.

Paxtachi tumani Samarqand viloyatining Navoiy viloyati bilan chegaradosh tumani bo‘lib, dastlab Narpay tumani tarkibida 1935-yil 9-fevralda tashkil etilgan. 1963-yilda yana Narpay tumaniga qo‘shilgan. 1973-yil 12-aprelda Paxtachi tumani nomi bilan yana Narpay tumanidan alohida tuman qilib ajratildi. Ushbu tumanda 59 ta mahalla fuqarolar yig‘ini mavjud [4, 135-136]. Quyida ularning nomlanishi haqida fikr bildiramiz.

A. Turobovning taa‘kidlashicha, joy nomlari uch asosiy usul bilan hosil bo‘ladi: leksik, morfologik, sintaktik. Paxtachi tumanida oykonimlarning asosiy qismi leksik usul bilan hosil bo‘lgan oykonimlar sanaladi va ularning quyidagi tiplarini ko‘rsatish mumkin:

a) ma‘lum bir kishi ismi, familiyasi, taxallusi asosida shakllangan oykonimlar: Mirzo Olim, Mirzo Nodim, Mirzo Ulug‘bek, Amir Temur, Mirza Salimiy, Go‘ro‘g‘li;

b) ma‘lum xalq, qabila, urug‘ va uning bo‘limlari nomi bilan shakllangan oykonimlar: Quvondiq, Ko‘rpa, Yobu, Nayman, Boltali, Saroy, Bodoy, Toma, Burqut, Mojoy, Urganji, To‘g‘oloni, Xudoyberdi;

c) jug‘rofik atamalar, kasb-hunar nomlari bilan shakllangan oykonimlar: Sardoba, Hunarmand, Dabusqal‘a, Keshtali, Zarafshon, Oqtepa, Guliston, Nahripay, Hayit elbegi.

Kishi ismlaridan hosil qilingan antroponimlarda Paxtachi tumanida yoki qadimgi Ziyovuddin bekligida yashab o‘tgan kishilar nomiga qo‘yilgan. Jumladan, Mirzo Nodim mahallasi nomi qadimda Ziyovuddin bekligida yashab ijod qilgan iste‘dodli shoirlardan biri nomiga qo‘yilgan bo‘lsa, Shamsinazar mahallasi nomi esa sobiq sho‘ro davrida yashagan mashhur dehqon(fermer) nomiga nisbatan shunday atalgan [2, 16-17].

Tuman mahallalaridagi etnotoponimlarni tahlil etadigan bo‘lsak, ularning aksariyati 92 bo‘vli o‘zbek urug‘ining qadimiy urug‘laridan bo‘lib chiqadi. Misol uchun, yuqorida keltirilgan Yobu mahallasi qadimda yobu, yobi(jobi), yabu, yabo deb nomlangan urug‘ nomidan kelib chiqqan. Bu urug‘ o‘zbek millati tarkibiga kirgan qadimiy elat hisoblanadi. O‘zbeklar orasida kichik guruhni tashkil etadi. Tarqoq holda Zarafshonning o‘rta va quyi oqimi( hozirgi Poyariq, Pastdarg‘om, Kattaqo‘rg‘on, Narpay, G‘ijduvon)da va Qarshi cho‘lida yashagan. Yobular qozoqlar tarkibida ham mavjud bo‘lgan, keyinchalik, o‘zbek millati tarkibiga singib ketgan[2, 21].

Mojoy mahallasi ham mojoy urug‘i nomidan kelib chiqqan etnotoponim hisoblanadi. “Mojoy – urug‘ning nomi. Tarixiy asarlarda yozilishicha, mojoy - vengerlarning sharq mualliflaridagi nomidir. Vengeriya – Mojoyiston deb atalgan”[2, 49].

Mahalla nomlari ichida ma‘nosi tushunarsizday tuyuladigan toponimlar uchraydi. Ularni



tushunish uchun ancha qadimgi tarixga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Fay toponimi ana shunday nomlardan biridir. Ushbu nom qadimda arablar istilosiga qadar Paxtachi hududida mavjud bo‘lgan Fay (Pay) saltanatining nomidir[2, 14].

Mirkent toponimi ham talaffuzda buzilib, Mirkan shakliga kelib qolgan. Ushbu toponim “mir” hamda “kent” komponentlaridan tashkil topgan bo‘lib, mir – kichik o‘zbek urug‘laridan biri, kent esa so‘g‘d tilida qishloq ma‘nosini anglatadi[2, 62]. Demak, Mirkan nomi ham etnotoponimdir.

Morfologik usulga topoformantlar (toponimni hosil qiluvchi qo‘shimcha) bilan hosil qilingan toponimlar kiradi, sintaktik usul birikma yoki gaplar birikib bir nomni hosil qilishi bilan ajralib turadi[3, 51]. Paxtachi tumanida morfologik usul bilan hosil bo‘lgan oykonimlar Gulobod, Yangiobod, Amirobod, Qaynarbuloq, Jahonobod, Qoratepa, Yo‘ldoshobodlardir. Ularning tuzilishida -obod topoformanti yetakchilik qiladi.

Qo‘shhovuz, Suluvqo‘rg‘on hamda Toshko‘prik toponimlari sintaktik usulda hosil qilingan toponimlarga misol bo‘ladi. Ular sifat+ot (Qo‘shhovuz, Suluvqo‘rg‘on), ot+ot (Toshko‘prik) shaklida tuzilgan.

Mustaqillik sababli turli xil mahalla nomlariga yangi nomlar berildi. Jumladan, Paxtachi tumanidagi Tinchlik, Taraqqiyot, Gulshan, Istiqbol, Obodon, Nurashshon, Bo‘ston, Istiqlol, Tadbirkor kabi nomlar shular sirasiga kiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytadigan bo‘lsak, Paxtachi tumanidagi mahalla nomlarining nomlanishida urug‘ nomlari asosiy o‘rin tutadi. Shu bilan birgalikda, hududda kishi ismlari orqali, qadimiy hududlar nomi orqali atalgan nomlar ham uchraydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qorayev S. O‘zbekiston viloyati toponimlari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 242 b.
2. Sanayev I. Bu Ko‘hna dunyo. – Toshkent: Adolat, 1996. 104 b.
3. Turobov A. Toponimlarning paydo bo‘lishida etnonimlarning o‘rni. O‘zbek tili va adabiyoti, 1999-yil №2 51-53 betlar.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent, 2000-yil. 466 b.





## AVTOMOBILSOZLIKGA OID TERMINLAR RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARI

**Mastona Yuldasheva,**

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Bugungi kunda avtoleksika oid terminologiya uchun sohaning ilmiy diskurs doirasida tadqiq etish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. Til hodisasi sifatida termin har bir olim tomonidan rivojlanish tarixi davomida ma'lum nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Mazkur maqolada avtomobilsozlikga oid terminlar rivojlanishining asosiy tendensiyalari haqida bayon qilamiz.

**Kalit so'zlar:** termin, terminoleksika, avtomobilsozlik, rivojlanish.

Tarixdan avtomobilsozlikga oid aksariyat terminoleksika lotin, ingliz, fransuz, nemis tillarda yaratilgan va hozir ham bu jarayon davom etmoqda. Insonga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan obyektlardan farqli o'laroq, fanning predmet nazariy bilimlar nuqtai nazaridan uni bilish predmeta bo'lib hisoblanadi, shuning uchun muammoning nazariy manbasiga murojaat qilish dolzarb bo'lib qoladi.

Sobiq ittifoq miqyosida terminologiya sohasidagi izlanishlar A.A. Reformatskiy, G.O. Vinokur, S.G. Barxudarov, O.S. Axmanova, K.A. Levkovskaya, V.V. Vinogradov, V.M. Leychik kabi olim va tadqiqotchilarning nomlari bilan bog'laniladi. Shu bilan birgalikda terminologiyaga oid masalalarning amaliy jihatlari D.S. Lotte, E.K. Drezen, S.I. Korshunov, T.L. Kandelaki, S.A. Chaplugin, B.C. Kulebakin, V.I. Siforov, Brunot G', Espersen O.A., Ch. S. Abdullaeva, G'. Abdurahmonov, S.A. Azizov, I.J. Yuldashev, P. G'lishonov, X.D. Paluanova, D.X. Kadirbekova va boshqalarning tadqiqotlari ob'ekt bo'lib xizmat qilgan. Terminologiyaga oid adabiyotlar va boshqa manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, dunyo ilm-fanida tegishli terminlarni tushunish va ta'riflash uchun ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Bu o'rinda V.P. Danilenko, V.V. Vinogradov, D.S. Lotte, A.A. Reformatskiy, B.N. Golovinlarning tadqiqotlarini keltirishimiz mumkin. Zamonaviy ilm-fanda erishilgan yutuqlarga qo'shimcha ravishda terminning ko'plab ta'riflari ham mavjud. B.N. Golovin termini quyidagicha ta'riflaydi: “termin - ma'lum bir kasb nuqtai nazaridan shu kasbga oid ma'noga ega bo'lgan, o'sha kasbga aloqador tushuichani ifodalovchi va shakllantiruvchi so'zdir” [B.N. Golovin, 1975, 264].

Zamonaviy terminologik tadqiqotlarda terminning ko'p qatlamli va murakkab tuzilishi mavjud bo'lib, u terminologik tahlilning keng miqyosda olib borilishini taqozo etadi. Avtoleksika sohasiga oid terminlar tarjimasini muammosini tadqiq etish jarayonida chog'ishtirilayotgan tillardagi terminlar tizimini tillararo kompleks ravishda o'rganish hamda mazkur terminlar tizimidagi terminlar o'rtasidagi struktural-semantik (tuzilishi va ifodalagan tushunchaga oid) lingvistik aloqalarni chog'ishtirma tadqiq etish lozim.

Ingliz tilining xarbiy ish, soliq, moliya, xuquq, geografiya mashinasozlik sohasiga oid termin tizimlari kabi ko'plab fan sohalarining tarkibiy tahlili bir so'zli terminlar va murakkab tarkibli terminlar ma'nolarini bog'lab turuvchi terminologik tizimdagi paradigmatic munosabatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi. Aynan shu munosabatlarga asoslanib, terminshunoslik iboralari terminlar o'rtasidagi konseptual va derivatsion munosabatlarni belgilab berishi aniqlangan. Bu jihatdan avtomobilsozlik sohasiga oid terminologiya ham bundan mustasno emas.

Terminning ilmiy ta'rifi vaqt o'tgani sayin o'zgarib boradi, biroq o'z vaqtida D.S. Lotte tomonidan ilgari surilgan quyidagi ta'riflar tizimi umumiy bo'lib qolaveradi, deb ta'kidlash mumkin: “Terminologik unsur terminologik ma'noga ega bo'lgan eng kichik birlik hisoblanadi va termin yaratilishida ishtirok etadi, termini milliy terminologik tizimning bir qismi sifatida talqin qilish mumkin; albatta yaratilgan terminologiyaning ma'lum kamchiliklari mavjud bo'lishi mumkin; terminlarning bir ma'noga ega bo'lishining “mutlaq” va “nisbiy” jihatlari farqlanadi; tushunchalar qatorini o'ziga xos jalb qilingan birliklarga bo'lish mumkin va bu o'rinda o'ziga xos tushunchalarning terminlari tartibga solinadi; tartibga solingan terminlarga birinchi navbatda terminologik tizim yaratish uchun asosiy terminologik tavsiya sifatida talqin etish lozim va bu orqali mutaxassislarning terminlarga oid yangi tushunchalarga ko'nikishlariga erishish mumkin; birinchi navbatda termin yasashda ishtirok etuvchi terminologik tugunlarning to'g'ri tuzilishga e'tibor berish lozim bo'ladi, chunki sohalarga oid terminologiyaning paydo bo'lishiga ularning tuzilishi katta ta'sir ko'rsatadi; yangi shakllangan termin predmet yoki tushunchaning nomiga aylanishi hamda bu sohada sinonimlarga ega bo'lmasligi va omonimli ifodalamasligi kerak,



mavjud va yangi yaratilgan terminlar xususiy, semantik yoki terminologik tugunga oid ma'lum bir bog'lanishga ega bo'lishi kerak" [Lotte, 1961].

Avtoleksikaga oid terminologiya uchun sohaning ilmiy diskurs doirasida tadqiq etish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. Til hodisasi sifatida termin har bir olim tomonidan rivojlanish tarixi davomida ma'lum nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Avtomobilsozlikga oid terminlar muammosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko'p bo'lishiga qaramay, termin bilan bog'liq ko'plab masalalar haligacha ko'rib chiqilmagan va to'liq hal etilmagan. Bugungi kunda tadqiqotchilarning hech biri mazkur masalaning mohiyatiga oid to'la-to'kis bo'lgan ta'rif bermagan; shuning uchun ham terminologiya sohasidagi tadqiqotlar davom etmoqda va davom etishi tabiiy holdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi hozirgi zamon va yangi til muhitida avtomobilsozlikga oid terminologiyaning lingvistik mohiyatini va ularning zamonaviylashuvini tadqiq etishdan iborat. Shu munosabat bilan biz terminlar va terminologiyaning yangilanish jarayonining asosiy muammolari va masalalarini hal qilishimiz lozim bo'ladi. Hozirgi zamon tilshunosligida terminlarni o'rganishda ikki asosiy ilmiy yondashuv mavjud: normativ va deskriptiv. Normativ yondashuvda termin maxsus semantik tuzilishga ega bo'lgan o'ziga xos turdagi leksik birlik deb qaraladi va mazkur xususiyaglar terminni adabiy tildagi umumiy foydalanishdagi so'zlardan ajratib turadi.

Aksincha, termin tadqiqiga normativ yondashuv tarafdorlari termin va uning mazmuniga bo'lgan me'yoriy talablarni ishlab chiqishgan va mazkur talablar terminning bir ma'noli, tizimli, qisqa, aniq bo'lishi va sinonimlariga ega bo'lmasligini taqozo etadi [Qarang: Lotte, 1961, 16-17, 72-79 b; Reformaskiy, 1961; Siforov, Kandelaki, 1986, 5b; Kiyak, 1989, 8-9b; Tatarinov, 1994]. Bu olimlarning tadqiqotlarida termin real hayotdagi nutqda faoliyat ko'rsatuvchi dinamik bo'lgan, o'zgarishlarga duch keladigan unsur sifatida emas, balki tildagi qayd etish sohasining statik unsuri sifatida tadqiq etiladi. Zamonaviy lingvistik adabiyotlarda bunday turdagi terminlarni "ideal terminlar" deb ataladi. Termin tadqiqiga deskriptiv yondashuv tarafdorlari terminni uning qo'llanilishi jihatidan o'rganish jarayonida terminning turg'un til birligi sifatida talqin etilishini tanqid qilib chiqdilar [Vinokur, 1939; Golovin, 1971, 1972; Golovin, Kobrin, 1987; Dani yunko, 1971, 1977; Krilov, 1973; Kobrin, Pekarskaya, 1977; Gerd, 1978]: Yuqoridagi olimlarning fikricha, terminlarning o'ziga xosligi, ularning maxsus o'ziga xos so'z emas, balki faqat maxsus vazifaga ega bo'lgan so'zlardir. Terminlar hamda oddiy so'zlarning terminologik bo'lmagan o'rinda foydalanilishidagi farqlarni mazkur til birliklarining o'ziga xos xususiyatlarida emas, balki ulardan foydalanish jarayoni va vazifalariga asoslangan holda ajratiladi. Bunday hollarda, termin til birligi sifatida tilga tegishli bo'lishi va muayyan holatda asta-sekin o'zgartirilib, til qonuniyatlariga bo'ysunishi mumkin. Shu sababli termin ko'p ma'noli bo'lishi mumkin va termin aniq bir tushunchani ifodalashda sinonim, antonim va so'z birikmalaridan tashkil topishi mumkinligi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar termin tadqiqiga deskriptiv yondashuv tarafdorlari xulosalarining to'g'riligini tasdiqlamoqda, chunki ko'plab tadqiqotchilar ko'rib chiqilayotgan obyekt - termin masalasida mazkur olimlar guruhining avtomobilsozlikga oid terminning lingvistik, kasbiy-kommunikativ va filologik yondashuvlarni o'z ichiga olgan umum qabul qilingan tavsifi va ta'rifining yo'qligi zamonaviy ilm-fanda tilshunoslikdagi yangi nazariyani ishlab chiqilishiga turtki bo'ldi.

#### References:

1. Azimov P. A., Desheriev Yu. D., Nikolsky L. B., Stepanov G. V., Schweitzer A.D. Modern social development, scientific and technical revolution and language // Questions of linguistics. -1975. -No 2. -P. 3-11.2.
2. Gerd A. S. Terminological meaning and types of terminological meanings // Problems of definitions of terms in dictionaries of different types: Collection / S. G. Barkhudarov, V. P. Petushkov, F. P. Sorokoletov; an USSR. -L.: Nauka, 1976. -P. 1013.
3. Golovin B. N. About some problems and topics of research of scientific and technical terminology. Scientific Notes. -Issue 114. Gorky University, 1970. -Pp. 17-26.5.
4. Leychik V. M. terminology: subject, methods, structure / V. M. Leychik. -3rd ed. -Moscow: LKI Publishing house, 2007. -256 p.9.
5. Lotte, D. S. (1961). Fundamentals of the construction of scientific and technical terminology: Questions of theory and methodology. Moscow: Publishing-house of the USSR Academy of Sciences.
6. Reformatsky A. A. Introduction to linguistics. Moscow: Aspect Press, 2008. -P. 115.



---

## THE EFFECT OF INDUCTIVE VS. DEDUCTIVE INSTRUCTIONAL APPROACH IN GRAMMAR LEARNING OF ESL LEARNERS

Мейлинорова Феруза Бахтиер қизи,

Тошкент юридик техникуми

“Юристлар учун инглиз тили” фани ўқитувчиси

Телефон: +998998300885

feruzam623@gmail.com

**Аннотация:** Teaching grammar has been a complex issue for centuries. There are two main ways that we tend to teach grammar: deductively and inductively. Both deductive and inductive teaching have their pros and cons and which approach we use when can depend on a number of factors, such as the nature of the language being taught and the preferences of the teacher and learners. It is, however, perhaps generally accepted that a combination of both approaches is best suited for the EFL classroom.

**Калит сўзлар:** Inductive approach, deductive approach.

These two approaches have been applied to grammar teaching and learning. A deductive approach involves the learners being given a general rule, which is then applied to specific language examples and honed through practice exercises. An inductive approach involves the learners detecting, or noticing, patterns and working out a ‘rule’ for themselves before they practice the language (Richards et al, 1985). Harmer (1989) ascertains that these two techniques encourage learners to compensate for the gap in their second language knowledge by using a variety of communication strategies.

Deductive grammar teaching is based on facts and statements; it is also based on prior logic. Therefore, the learners are told the grammatical rule and will work from that. Deductive approach is certainly easier to apply and leaves little room for mistakes providing that the rule is concisely and clearly stated. Eisenstein (1987) suggests that with the deductive approach, learners be in control during practice and have less fear of drawing an incorrect conclusion related to how the target language is functioning. In general, the advantages of deductive approach can be summarized as follow:

- It gets straight to the point, and can therefore be time-saving. Many rules — especially rules of form — can be more simply and quickly explained than elicited from examples. This will allow more time for practice and application.
- It respects the intelligence and maturity of many - especially adult -students, and acknowledges the role of cognitive processes in language acquisition.
- It confirms many students' expectations about classroom learning, particularly for those learners who have an analytical learning style.
- It allows the teacher to deal with language points as they come up, rather than having to anticipate them and prepare for them in advance.

However, deductive approach has some quite significant disadvantages that cannot be disregarded. The most important one is lack of students’ involvement and struggle for understanding, which may result in the lesson being teacher-centered and not demanding in terms of creativity and imagination. Teacher’s incompetence may deteriorate the situation further; if they are unable to state the rule explicitly, back it up with relevant examples and adjust the use of met language to the needs of his students, then even the dimpliest grammar instruction can become ambiguous, and breed confusion and discouragement. In general, the disadvantages of deductive approach can be summarized as follow:

- Starting the lesson with a grammar presentation may be off-putting for some students, especially younger ones. They may not have sufficient met language (i.e., language used to talk about language such as grammar terminology). Or they may not be able to understand the concepts involved.
- Grammar explanation encourages a teacher-fronted, transmission-style classroom; teacher explanation is often at the expense of student involvement and interaction.
- Explanation is seldom as memorable as other forms of presentation, such as demonstration.
- Such an approach encourages the belief that learning a language is simply a case of knowing



the rules.

Inductive is known as a 'bottom up' approach. In other words, the students discover grammar rules while working through exercises. Inductive grammar teaching is based on trial and error, experiments. The learners learn from trying different things, seeing what works and what does not. Through experimenting they figure out the grammatical rules. Inductive method can be used solely by an experienced and competent teacher who knows his students well enough to be able to adjust the instruction to their needs and capacities. The superiority of inductive method over deductive one can only be utilized if one has profound insight into teaching techniques and possesses deep knowledge of students' patterns of thinking and approaching new structures. It is also of paramount importance to know when and how to help learners, what can be done to aid them in coming up with a particular rule and how to do that efficiently. An inductive approach comes from inductive reasoning stating that a reasoning progression proceeds from particulars (that is, observations, measurements, or data) to generalities (for example, rules, laws, concepts or theories) (Felder & Henriques, 1995). In general, the advantages of inductive approach can be summarized as follow:

- Rules learners discover for themselves are more likely to fit their existing mental structures than rules they have been presented with. This in turn will make the rules more meaningful, memorable, and serviceable.

- The mental effort involved ensures a greater degree of cognitive depth which, again, ensures greater memo ability.

- Students are more actively involved in the learning process, rather than being simply passive recipients: they are therefore likely to be more attentive and more motivated. It is an approach which favors pattern-recognition and problem-solving abilities which suggests that it is particularly suitable for learners who like this kind of challenge.

- If the problem-solving is done collaboratively, and in the target language, learners get the opportunity for extra language practice.

- Working things out for themselves prepares students for greater self-reliance and is therefore, conducive to learner autonomy. In general, the disadvantages of inductive approach can be summarized as follow: \*The time and energy spent in working out rules may mislead students into believing that rules are the objective of language learning, rather than a means.

- The time taken to work out a rule may be at the expense of time spent in putting the rule to some sort of productive practice.

- Students may hypothesis the wrong rule, or their version of the rule may be either too broad or too narrow in its application: this is especially a danger where there is no overt testing of their hypotheses, either through practice examples, or by eliciting an explicit statement of the rule.

It can place heavy demands on teachers in planning a lesson. They need to select and organize the data carefully so as to guide learners to an accurate formulation of the rule, while also ensuring the data is intelligible.

- However carefully organized the data is, many language areas such as aspect and modality resist easy rule formulation.

An inductive approach frustrates students who, by dint of their personal learning style or their past learning experience (or both), would prefer simply to be told the rule.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

